

Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar- iyun

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi 64,2% ni tashkil etdi.
- 4,6 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,1 birlikni taskil qildi.


2019 yilning yanvar-iyunida 4,6 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (47,4 %), sanoatda (25,2 %), yashash va ovqatlanishda (6,5 %), qurilishda (6,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3,7%), tashish va saqlashda (3,7 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish




Tashish va saqlash

2019 yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko’rsatkichlari

	O’Ichov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	21728	27665	5937
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2005	4622	2617
YaHM	%	68,4	64,2	-4,2
Sanoat	%	34,3	39,8	5,5
Qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	%	98,2	96,5	-1,7
Investitsiya	%	69,0	64,1	-4,9
Qurilish	%	94,8	89,1	-5,7
Savdo	%	89,8	88,1	-1,7
Xizmatlar	%	74,9	71,2	-3,7
Yuk tashish	%	95,5	95,3	-0,2
Yuk aylanmasi	%	96,4	96,8	0,4
Yo’lovchi tashish	%	94,0	94,7	0,7
Yo’lovchi aylanmasi	%	95,8	96,1	0,3
Eksport	%	47,2	54,1	6,9
Import	%	46,6	75,0	28,4



**2019 yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlikning
tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %**




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Farg'ona viloyati	2005	4622
Oltiariq	125	279
Qo'shtepa	37	137
Bag'dod	65	177
Buvayda	124	236
Beshariq	52	139
Quva	86	294
Uchko'prik	113	239
Rishton	69	191
So'x	34	60
Toshloq	92	183
O'zbekiston	97	220
Farg'ona t.	73	227
Dang'ara	60	225
Furqat	62	110
Yozyovon	49	87
Farg'ona sh.	363	691
Qo'qon sh.	258	530
Quvasoy sh	69	148
Marg'ilon sh.	177	449

2019 yilning yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Farg'ona (691 ta), Qo'qon (530 ta), Marg'ilon (449 ta) shaharlarida. Quva tumanida - 294 ta, Oltiariq tumanida - 279 ta, Uchko'prik tumanida - 239. Buvayda, Farg'ona, Dang'ara, O'zbekiston tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 236-220 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yozyovon tumanida – 87 ta, So'x tumanida – 60 tani tashkil etgan.



2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahriga - 15,0 %, Qo'qon shahri - 11,5 %, Marg'ilon shahri - 9,7 %, Quva tumani - 6,4 %, Oltiariq tumani - 6,0 %, Uchko'prik tumani - 5,2 %, Buvayda tumani - 5,1 %, Farg'ona - 4,9 %, Dang'ara - 4,8 %, O'zbekiston tumani - 4,7 %, shuningdek Quvasoy shahar, Rishton, Toshloq, Bag'dod, Qo'shtepa, Beshariq, Furqat, Yozyovon va So'x tumanlari 4,1-1,3 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Jami	2005	4622
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	152	170
Sanoat	627	1163
Qurilish	225	294
Savdo	431	2191
Tashish va saqlash	86	170
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	120	300
Axborot va aloqa	53	47
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	68	55
Boshqa turdag'i xizmatlar	243	232

Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda - 2191 ta, shuningdek :


sanoatda - 1163 ta;

qurilishda - 294 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 170 ta;


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar –170 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar



2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Farg'ona shahrida – 691 ta, Qo'qon shahrida - 530 ta, Marg'ilon shahrida - 449 ta, Quva tumanida - 294 ta, Oltiariq tumanida—279 ta, Uchko'prik tumanida - 239 ta, Buvayda tumanida bu ko'rsatkich 227 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 18,2 birlikda, Qo'qon shahrida 15,8 birlikda, Quvasoy shahrida 14,9 birlikda, Furqat tumanida 14,4 birlikda, Dang'ara tumanida 14,0 birlikda, Marg'ilon shahrida 13,7 birlikda, Quva tumanida 13,6 birlikda aniqlandi. Beshariq tumanida 7,9 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'llib qolmoqda.

**Hudular bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlik)**




Ma'lumot uchun: Agar, 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,6 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 12,1 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 0,5 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 39,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 96,5 %, qurilishda - 89,1 %, investitsiyada - 64,1 %, savdoda - 88,1 %, eksportda - 54,1 %, importda - 75,0 %va xizmatlar sohasidagi - 71,2 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

**2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**




**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar - iyun holatiga, %**


2019 yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi lushi 64,2 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - iyunida 68,4 %).

YaHM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


2019 y.



2018 y.



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**



**2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	39,8	89,1	71,2	64,1
<i>hududlar</i>				
Oltiariq	100,0	99,6	96,1	75,4
Qo'shtepa	100,0	99,8	99,8	88,6
Bag'dod	38,0	87,6	97,5	93,1
Buvayda	100,0	97,8	98,9	89,1
Beshariq	38,4	55,6	96,8	9,4
Quva	48,4	99,6	92,5	91,0
Uchko'prik	91,4	99,0	98,6	94,7
Rishton	29,7	99,0	93,4	61,9
So'x	100,0	99,0	98,0	44,0
Toshloq	26,2	99,0	97,9	89,6
O'zbekiston	67,0	99,0	98,2	97,0
Farg'ona t	100,0	89,7	86,1	79,6
Dang'ara	100,0	94,9	96,5	94,5
Furqat	100,0	99,6	99,2	82,0
Yozyovon	100,0	54,0	98,8	38,6
Farg'ona sh.	18,8	90,3	44,2	37,0
Qo'qon sh.	26,1	64,1	89,6	62,7
Quvasoq sh.	27,1	97,5	95,5	79,4
Marg'ilon sh.	100,0	99,8	95,4	90,9

Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Marg'ilon sh., Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Farg'ona, Dang'ara tumanlari (100 %dan) tashkil etdi.

Qurilishda - Marg'ilon sh. (99,8 %), Qo'shtepa (99,8 %), Quva (99,6 %) Furqat (99,6 %) va Oltiariq (99,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (99,8%), Furqat (99,8%), Buvayda (98,9 %), Yozyovon (98,8 %), Uchko'prik (98,6 %), O'zbekiston (98,2 %) va So'x (98,0 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - O'zbekiston (97,0 %), Uchko'prik (94,7 %) Dang'ara (94,5 %) va Bag'dod (93,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyunida

-
1. 3686,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlam chiqarildi (jami sanoat ishlab chiqarishning 39,8 %);
2. 2916,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 64,1 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 17 martaga oshdi;
3. 1780,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,1 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 %ni tashkil qildi;
4. 3558,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 71,2 %), 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 %ni tashkil qildi;
5. chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,1 % yoki 5387,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 102,8 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
6. 156,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 54,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 34,7 mln. AQSH dollariga yoki 28,5 % ga ko'p
7. avtomobil transporti yuk aylanmasining 10,1 % ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,8 %) ko'payishi ta'minlanadi;
8. yo'lovchi aylanmasining esa 1,9 % ga (umumiyo'lovchi aylanmasining 96,1 %) ko'payishi ta'minlandi.



Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Marg'ilon sh., Oltiariq, Qo'shtepa, Bag'dod, O'zbekiston, Dang'ara, Furqat, Yozyovon tumanlarida 100 % ni, Beshariq tumanida - 98,3 %, Quvasoy shahrida - 91,8 %, eng past ko'rsatkichni Farg'ona shahar - 39,8 %, Toshloq tumanini - 12,9 %, Qo'qon shahar - 10,7 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikdagi tovar va xizmatlar importining
jami import hajmidagi ulushi, %
2019 yil yanvar-iyun**




2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik tashqi savdo aylanmasining viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon sh., Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda O'zbekiston, Dang'ara tumanlarida (100 %dan), eng past ko'rsatkichni Toshloq tumani (21,6 %), Farg'ona (35,1 %) va Qo'qon (48,1 %) shaharlari tashklil etdi.

**Kichik tadbirkorlik tashqi savdo aylanmasining viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi
2019 yil yanvar-iyun, %**




2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (649,3 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (404,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (364,5 mlrd. so'm) Marg'ilon shahar (342,8 mlrd. so'm) va Toshloq tumani (261,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Rishton tumanida (55,4 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




- Oltiariq ● Qo'shtepa ● Bag'dod ● Buvayda ● Beshariq ● Quva ● Uchko'prik ● Rishton
- So'x ● Toshloq ● O'zbekiston ● Farg'ona t. ● Dang'ara ● Furqat ● Yozyovon ● Farg'ona sh.
- Qo'qon sh. ● Quvasoy sh. ● Marg'ilon sh.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon shahar, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Farg'ona, Dang'ara, Furqat va Yozyovon tumanlari (100,0 %dan). Bundan tashqari, Uchko'prik tumani (91,4%), O'zbekiston tumani (67,0%), Quva tumani (48,4%), Beshariq tumani (38,4%), Bag'dod tumani (38,0%) da kichik biznesning ulushi o'rta darajada bo'lib, Rishton tumani (29,7%), Quvasoy shahrida (27,1%), Toshloq tumani (26,2%) hamda Qo'qon (26,1%) va Farg'ona (18,8%) shahlarida esa kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

**2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi, mln. so'm**



O'sish sur'ati, %



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri (1125,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahr (759,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (445,7 mlrd. so'm), Qo'shtepa (294,6 mlrd. so'm), Quva (278,1 mlrd. so'm) va Uchko'prik (222,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (390,0 mld. so'm), Marg'ilon shahar (182,4 mld. so'm), Quvasoy shahar (160,6 mld. so'm) Qo'qon shahar (123,6 mld. so'm) hamda Dang'ara (123,3 mld. so'm), tumanlarida qayd etildi.



**2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlat sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Farg'ona shahar (1023,1 mln.som), Qo'qon shahar (570,1 mln.som), Marg'ilon shahar (474,9 mln.som), Oltiariq (135,1 mln.som), Uchko'prik (134,0 млрд.сум) va Farg'ona (121,6 mln.som) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil II chorak yakunlariga ko'ra yangi tashkil bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuv o'tkazildi. unda 237 ta respondenrt ishtirok etdi. ulardan sanoat korxonalari - 62 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 26,2 %), savdo - 106 (44,7 %), xizmatlar sohasi - 43 (18,1 %), qurilish - 17 (7,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9 (3,8 %).




2019 yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Marg'ilon shahrida - 15,2 % (36ta), Qo'qon shahar - 12,2 % (29ta), Farg'ona shahar - 11,4 % (27ta), O'zbekiston tumanida - 10,5 % (25ta), Oltiariq tumanida - 8,0 % (19ta), Quva tumanida - 6,8 % (16ta), Uchko'priq tumanida - 5,1 % (12ta).

Tarmoq	birlikda
Sanoat	62
Qurilish	17
Savdo	106
Xizmatlar	43
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9

2019 yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, foizda




Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 23,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 70,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 41,5 % va 56,6 %, xizmatlar sohasida – 41,9 % va 48,8 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 33,3 % va 56,6 %, sanoatda – 32,3 % va 59,7 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 8,0 %, qurilishda – 5,9 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 11,1 %, xizmatlarda – 9,3 % va savdoda – 1,9 %ni tashkil qildi.




**Iqtisodiy vaziyatni baholash
2019 yil IIchorak uchun, %**



Taqqoslash uchun: 2018 yilning II choragida qurilish sohasida respondentlarning 33,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 33,3 % esa qoniqarli deb hisoblagan, mos ravishda savdo sohasida – 30,8 % va 38,5 %, xizmatlar sohasida – 58,8 % va 23,5 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 50,0 % va 50,0 %, sanoatda – 55,0 % va 20,0 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.



Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 74,2 % -sanoat korxonalari, 75,5 % – savdo, 77,8 % – xizmatlar, 77,8 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi va 82,4 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: J.Artikov

Tel.: (0371) 230-87-35, (0373) 241-72-73